

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI BOSH PROKURATURASI
HUZURIDAGI IQTISODIY JINOYATLARGA QARSHI
KURASHISH DEPARTAMENT

“RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA IQTISODIY
XAVFSIZLIKNI TA’MINLASH: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR

MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMANI TO‘PLAMI

FUQAROLAR PLASTIK KARTALARI KIBRXAVFSIZLIGINI TA’MINLASH
TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH” (MY CARD MOBIL ILOVASI)

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA VA SUN'IY INTELLEKT

Ilmiy elektron jurnal

*Elektron nashr. 329 sahifa.
2026-yil, fevral.*

Bosh muharrir:

Mo'minov Baxodir Boltaevich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Nasimov Rashid

Muharrir:

Ulug'ova Baxtiniso Norpulatovna

Musahhih:

Ulug'ova Baxtiniso Norpulatovna

Dizayner:

Egamberdiyev Elyor

Tahrir hay'ati:

- | | |
|--|---------------------------------------|
| 1. Mo'minov Bahodir (hay'at raisi) | 12. Xamza Eshankulov (O'zbekiston) |
| 2. Rashid Nasimov (hay'at raisi o'rinbosari) | 13. Iles Xujayarov (O'zbekiston) |
| 3. Marat Raxmatullayev (O'zbekiston) | 14. Mexriddin Raximov (O'zbekiston) |
| 4. Muxammadjon Musaev (O'zbekiston) | 15. Murodjon Sultanov (O'zbekiston) |
| 5. O'tkir Xamdamov (O'zbekiston) | 16. Bekmurodov Ulug'bek (O'zbekiston) |
| 6. Ali Xikmet (AQSh) | 17. Alisher Qobilov (O'zbekiston) |
| 7. Dmitriy Rodionov (Rossiya) | 18. Iroda Abdullaeva (O'zbekiston) |
| 8. Dilnoza Muhammadieva (O'zbekiston) | 19. Burova Ekaterina (Rossiya) |
| 9. Gayrat Ishanxodjaev (O'zbekiston) | 20. Xodiyeva Gulmira (O'zbekiston) |
| 10. Nodir Rahimov (O'zbekiston) | 21. Sultonboyeva Munira (O'zbekiston) |
| 11. Akmal Abdusalomov (J. Koreya) | |

Jamoatchilik kengashi:

- | | |
|------------------------------------|--------------------------------------|
| 1. Gul Tokdemir (Turkiya) | 8. Olga Dzyabenko (Ispaniya) |
| 2. Umid Axmedov (Daniya) | 9. Stefani Estlund (Lyuksemburg) |
| 3. Marko Porta (Italiya) | 10. Sanjar Iskandavor (O'zbekiston) |
| 4. Xristo Beloev (Bolgariya) | 11. Aydos Sarsembayev (Qirg'iziston) |
| 5. Muxriddin Muhitdinov (J.Koreya) | 12. Svetomir Vasilev (Bolgariya) |
| 6. Boshtyan Brumen (Sloveniya) | 13. Pap Solt (Vengriya) |
| 7. Bibigul Koshoeva (Qirg'iziston) | |



MUNDARIJA

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA MOLIYA SOHASINING INNOVATSION RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI	7
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, Mamadyarovna Go'zal Norboyevna	
MOLIYAVIY INKLYUZIYA VOSITALARI ORQALI CHEKKA HUDUDLARDA IQTISODIY FAOLLIKNI OSHIRISH MEXANIZMLARI.....	13
Eshov Mansur Po'latovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI BOSH PROKURATURA HUZURIDAGI IQTISODIY JINOYATLARGA QARSHI KURASHISH DEPARTAMENTI FAOLIYATI VA UNING MAMLAKAT IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDAGI O'RNI.....	20
Babadjanov Atxam Axmadjanovich	
ПОВЫШЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ УПРАВЛЕНИЯ ИННОВАЦИОННЫМИ ПРОЦЕССАМИ ДЛЯ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ БЕЗОПАСНОСТИ В КОММЕРЧЕСКИХ БАНКАХ.....	26
Ахмедов Самандар Сайфуллоевич	
IQTISODIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHDA BOJXONA XIZMATINING FISKAL FAOLIYATIGA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR TAHLILI. 32	
Farxodov Farrux Furqatovich, Toshpo'lotova E'zoza Latifjonovna	
SOLIQ MA'MURCHILIGINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI YASHIRIN IQTISODIYOT ULUSHINI QISQARTIRISH YO'LLARI	38
Mamatkulov Salimjon Raxmonkulovich	
IQTISODIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHDA BOJXONA TO'LOVLARINI UNDIRISHNI RAQAMLASHTIRISHNING AYRIM MASALALARI	43
Pardayev To'liqin Nasirovich	
QARZ MUNOSABATLARINI RAQAMLASHTIRISH: IQTISODIY VA HUQUQIY MUNOSABATLARDAGI AHAMIYATI VA ISTIQBOLLARI	47
Quramboev Jamshid Rashid o'g'li	
EVALUATING THE EFFICIENCY OF COMMERCIAL BANKS IN UZBEKISTAN USING A MULTIPLE LINEAR REGRESSION MODEL.....	50
Rakhimberdiev Kuvonchbek Bakhtiyorovich	
TASHQI SAVDO OPERATSIYALARIDA DEBITOR QARZDORLIKLARNI BOSHQARISHNING RAQAMLI MODEL VA RISK- MONITORING TIZIMI	56
Tashmuxeimedov Dilmurod Mirabzalovich	
WAYS TO REDUCE THE RISK OF DIGITAL ATTACKS IN BANKING AND GOVERNMENT FINANCIAL SYSTEMS.....	62
M.N. Umarova	
MOLIYALASHTIRISH MANBALARINI DIVERSIFIKATSIYA QILISH KICHIK BIZNES IQTISODIY XAVFSIZLIGINI MUSTAHKAMLASH OMILI SIFATIDA.....	69
Abduxakimov Eldor Djaloliddinovich	
TADBIRKORLIK VA KICHIK BIZNESDA IQTISODIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHNING NAZARIY MASALALARI.....	76
Aliyev Yashnarjon Egamberdiyevich	
MAHALLIY GILAM ISHLAB CHIQUVCHI KORXONALAR RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA MARKETING STRATEGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH VA IQTISODIY XAVFSIZLIKDA TAHDIDLARNI KAMAYTIRISH YO'LLARI.....	81
Arziyeva Sevinch Shomurot qizi	
TASHQI SAVDODA XATARLARNI KAMAYTIRISHDA SAVDONI MOLIYALASHTIRISH VOSITALARIDAN FOYDALANISH.....	85
Babadjanov Shuhrat Atxamovich	
KORXONALAR IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING KONTSEPTUAL VA METODOLOGIK ASOSLARI.....	92
Jamoliddinov Jobirbek Bohodir o'g'li	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING MOLIYAVIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING METODOLOGIK JIHLTLARI.....	97
Karimov Alibek Valiyevich	
KICHIK BIZNES KORXONALARIDA ISHLAB CHIQUVCHI OMILLARI NOMUTANOSIBLIGINING IQTISODIY XAVFSIZLIKKA TA'SIRINI BAHOLASH VA UNI BARTARAF ETISH MEXANIZMI.....	102
Kaypnazarova Gulshad Xojamuratovna	
КРИТЕРИИ ОЦЕНКИ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ БЕЗОПАСНОСТИ В МАЛОМ БИЗНЕСЕ С ПОМОЩЬЮ SWOT-АНАЛИЗА.....	108
Набиев Бехзод Шавкатович	
TADBIRKORLIK VA KICHIK BIZNESNING IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH HAMDA QO'LLAB-QUVVATLASHNING ILMIY-AMALIY JIHLTLARI.....	114
Tashmuxeimedova Yayra Atxamovna, Teshayev Sayimbek	
O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNESNI MOLIYALASHTIRISH ORQALI AHOLI BANDLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	120
Toxirova Mushtariybegim Yashnarjon qizi	
QURILISH MATERIALLARI SANOATI KORXONALARIDA MOLIYAVIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASH STRATEGIYASI	124



Tursunov Bobir Ortikmirzayevich, Umarova Nargiza Xoldarovna

РАЗРАБОТКА ЭФФЕКТИВНОЙ СТРАТЕГИИ ФИНАНСОВОЙ БЕЗОПАСНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЙ ТЕКСТИЛЬНОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ..... 134

Турсунов Бобир Ортикмирзаевич

KIMYO SANOAT KORXONALARI IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA’MINLASHDA MARKETING VOSITALARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH 141

Tursunxo’jayev Sardor Jamoliddin o’g’li

MAMLAKAT QURILISH MATERIALLARI SANOATI KORXONALARI MOLIVAVIY XAVFSIZLIGIGA TA’SIR ETUVCHI OMILLARNING EKONOMETRIK TAHLILI 147

Umarova Nargiza Xoldarovna

YENGIL SANOAT KORXONALARI IQTISODIY XAVFSIZLIGIGA TA’SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI..... 154

Sadriddinova Nigora

RAQAMLI MOLIVAVIY INKLYUZIYA VOSITALARI ORQALI TUMANLAR O’RTASIDAGI IJTIMOYIY FARQNI KAMAYTIRISH MODELI.... 162

Xakimov Ziyodulla Ahmadovich, Tursunov Bobir Ortikmirzayevich, Adashaliyev Baxtiyorjon Valisher o’g’li

O’ZBEKISTONDA YASHIRIN IQTISODIYOT KO’LAMINI QISQARTIRISHDA RAQAMLI IQTISODIYOTNING O’RNI 170

Jaloliddinov Anvar Jaloliddin o’g’li

YASHIRIN IQTISODIYOT KO’LAMINI QISQARTIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH: O’ZBEKISTON BOJXONA ORGANLARI TAJRIBASI 176

Makamov Z.X., Soatov S.S.

RAQAMLI PLATFORMALAR ORQALI XALQARO SAVDODA IQTISODIY XAVFSIZLIKNI TA’MINLASH MUAMMOLARI VA ULARNI BARTARAF ETISH MEKANIZMLARI..... 182

Muxtorov Boburmizro Bahodir o’g’li

RAQAMLI TO’LOV TIZIMLARI VA ELEKTRON HISOB-KITOBLARNING YASHIRIN IQTISODIYOT ULUSHINI KAMAYTIRISH MEKANIZMLARI..... 188

Norsafarov Bunyodshoh Muhiddinzoda

PROSPECTIVE INDICATORS FOR MANAGING THE LEGALIZATION OF THE INFORMAL SECTOR AND INFORMAL EMPLOYMENT IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN 192

Qoraboyev Nuriddin Pardaboy o’g’li

YASHIRIN IQTISODIYOT KO’LAMINI QISQARTIRISHDA TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN AHOLIGA KO’RSATILAYOTGAN BANK XIZMATLARINI TAKOMILLASHTIRISHNING RAQAMLI YO’NALISHLARI..... 196

To’patillayeva Gulnoza Sirojiddin qizi

BIG DATA TEXNOLOGIYALARI YORDAMIDA SOLIQ RISKLARINI ANIQLASH VA YASHIRIN IQTISODIYOTNI QISQARTIRISH IMKONIYATLARI..... 201

Yakubova Nargiza Tursunbayevna, Maxmudov Jasurbek Ulug’bek o’g’li

SOLIQLAR YOKI BOSHQA MAJBURIY TO’LOVLARNI TO’LASHDAN BO’YIN TOVLASH JINOYATI VA UNING MAMLAKAT IQTISODIY XAVFSIZLIGIGA TA’SIRI..... 208

Axmedov Zafar Bozorboyevich

DAVLATLARNING IQTISODIY JINOYATCHILIKKA QARSHI KURASHDAGI XALQARO HAMKORLIGI: XALQARO TASHKILOTLAR, FATF STANDARTLARI VA AMALIY MEKANIZMLAR..... 213

Tashmuxamedova Yayra Atxamovna

IQTISODIY JINOYATLARNI ANIQLASH VA ULARGA QARSHI KURASHISHDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYALARNING O’RNI ..221

Faxridinov Zafarjon Faxridin o’g’li, Tursunov Bobir Ortikmirzayevich, Tashmuxamedova Yayra Atxamovna

RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA AHOLINING MOLIVAVIY SAVODXONLIGINI OSHIRISH IMKONIYATLARI 226

Azlarova Mushtariybegim Abror qizi

RAQAMLI TO’LOV TIZIMLARI XAVFSIZLIGINI TA’MINLASHDA DAVLAT INSTITUTSIONAL MEKANIZMLARINING ROLI..... 232

Kurbonbekova Mohichehra Turobjonovna, Azlarova Aziza Axrorovna

MOLIVAVIY SAVODXONLIK TUSHUNCHASI VA UNING IQTISODIY RIVOJLANISHDAGI O’RNI..... 238

Maxmudova Muxlisa Qodirjon qizi, Sattorova Nasiba G’anijon qizi

AHOLI MOLIVAVIY SAVODXONLIGINI OSHIRISH BO’YICHA XORIJIY ILMIY YONDASHUVLAR TAHLILI 244

Kurbonbekova Mohichehra Turobjonovna, Muzaffarova Dilbar Mamalatif qizi

MAHALLIY OLIMLAR TADQIQOTLARIDA MOLIVAVIY SAVODXONLIK VA BANK XIZMATLARI MASALALARI 251

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, Maxmudova Muxlisa Qodirjon qizi

BANK PLASTIK KARTALARI VA SHAXSIY HISOB RAQAMLARINI NAZORAT QILISH TIZIMINING NAZARIY ASOSLARI..... 258

Azlarova Aziza Axrorovna, Sattorova Nasiba G’anijon qizi

AUTENTIFIKATSIYA SXEMALARINI TAHLIL QILISH VA ULARNING AFZALLIKLARI HAMDA KAMCHILIKLARI..... 265



Ahmedova Nilufar Shukratovna, Kurbonbekova Mohichehra Turobjonovna PLASTIK KARTALAR XAVFSIZLIGIGA TA'SIR KO'RSATUVCHI MAVJUD KIBRXAVFSIZLIK TAHDIDLARI TAHLILI	272
Kuziyeva Nargiza Ramazanovna, Maxmudova Muxlisa Qodirjon qizi ILG'OR XORIJIY MAMLAKATLARDA PLASTIK KARTALAR VA RAQAMLI TO'LOVLAR XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH TAJRIBALARI: FINTECH PLATFORMALARINING QIYOSIY TAHLILI VA MYCARD MOBIL ILOVASINI TAKOMILLASHTIRISH BO'YICHA TAVSIYALAR	278
Kurbonbekova Mohichehra Turobjonovna, Mashrapova Sabina Turobjonovna AHOLI MOLIYAVIY SAVODXONLIGINI OSHIRISHDA IJTIMOY TARMOQLARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI BAHOLASH MEZONLARI VA INDIKATORLARI	285
Eshpulatova Muazzam Barnoyevna AHOLINING MOLIYAVIY SAVODXONLIGINI OSHIRISH MUAMMOLARI	292
Eshpulatova Muazzam Barnoyevna МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ОЦЕНКИ ЦИФРОВОЙ ЗРЕЛОСТИ ЭЛЕКТРОННОЙ КОММЕРЦИИ И ЕЁ ВЛИЯНИЕ НА КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТЬ ПРЕДПРИЯТИЙ	298
Назарова Гулчебра Нурмухамбетовна ОЦЕНКА ВЛИЯНИЯ ЦИФРОВОЙ ЗРЕЛОСТИ ЭЛЕКТРОННОЙ КОММЕРЦИИ НА КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТЬ ПРЕДПРИЯТИЙ УЗБЕКИСТАНА.....	305
Назарова Гулчебра Нурмухамбетовна MOLIYAVIY INKLIZIYADA KIBRXAVFSIZLIKNING O'RNI VA UNING BARQAROR IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI: BANK MOBIL ILOVALARI MISOLIDA.....	313
Saydamatova Muxlisabonu Rasuljon qizi MOLIYAVIY XIZMATLARDAN FOYDALANISHDA SOLIQ SAVODXONLIGINING O'RNI	318
Irgashev Anvar Farxodovich RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA ALTERNATIV KREDIT SKORING TIZIMLARINING AHAMIYATI	322
Lazizbek Ravshanov Baxtiyor o'g'li THE ECONOMIC ESSENCE OF LABOR AND ITS INTERPRETATION IN THE CONTEXT OF INTERNATIONAL FINANCIAL REPORTING STANDARDS	325
Nomozov Ilhomjon Ziyadullah ugli O'ZBEKISTON KORXONALARIDA BIZNES JARAYONLARINI MODELLASHTIRISH AMALIYOTINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI	328
Qarshiyeva Moxinur Olim qizi THE ROLE OF RITUALS IN ATTRACTING TOURISTS.....	331
Freshta Qayoumi O'ZBEKISTONDA REKREATIONS TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-AMALIY O'ZIGA XOS JIHATLARI.....	333
Po'latova Mavluda Sanjar qizi O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA TARMOQLAR KESIMIDA INVESTITSIYA SAMARADORLIGINI BAHOLASH	336
Otajonova Charosxon Polvonquli qizi MOLIYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARIDAN O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI AMALIYOTIDA FOYDALANISH IMKONIYATLARI VA RIVOJLANISH MUAMMOLARI	340
Valijonov X.A. IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA KICHIK SANOAT ZONALARIDAGI KORXONALAR RAQOBATBARDOSHLIGI MASALALARI	344
Shodmonqulov Kamoliddin Murodillayevich KIMYO SANOATI KORXONALARINING IQTISODIY SAMARADORLIGI VA UNI OSHIRISHNING MAKRO DARAJADAGI TAHLILI	347
Suyarov Shahzod Salim o'g'li INVESTITSIYON MUHITNI SAMARALI BOSHQARISHDA INNOVATSION OMIL TA'SIRCHANLIGINI OSHIRISH IMKONIYATLARI.....	350
To'rayev Jasurali To'rayevich SOG'LIQNI SAQLASH TIZIMINI RAQAMLI TRANSFORMATSIYA QILISH SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING IQTISODIY MEXANIZMI: DH-ROI-EM MODEL ASOSIDA	353
Omonov Olim Murodullaevich	



РИСКИ ЛИКВИДНОСТИ ПРИ ОБЕСПЕЧЕНИИ ТРАНСГРАНИЧНЫХ ДЕНЕЖНЫХ ПЕРЕВОДОВ.....	355
Садыков Азиз Миршарапович	
THE ROLE OF TECHNOLOGY IN RESTAURANTS AND ENHANCING OFFERINGS FOR TOURISTS.....	358
Freshta Qayoumi	
INVESTITSIYA FAOLLIQI MINTAQAVIY IQTISODIY XAVFSIZLIK OMILI SIFATIDA	360
Islamov Anvar Ashirqulovi	
ASSESSING DIGITAL MATURITY IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS: AN INTEGRATED FRAMEWORK APPROACH	363
Berdiyev Temurbek Makhmudullo ugli	
SANOAT TARMOG'INI IQTISODIY RIVOJLANTIRISH VA UNDAN SAMARALI FOYDALANISHNING NAZARIY ASOSLARI.....	363
Ne'matov Shoxruxbek Ma'murjon o'g'li	
CHANGES IN TEXTILE INDUSTRY OUTPUT AND THE FACTORS INFLUENCING IT	367
Xushvaqtov Shuhrat Abduraufovich	
TIJORAT BANKLARI MOLIVAVIY HISOBOTI AUDITINING NAZARIYMETODOLOGIK ASOSLARI	371
Ibragimov Nodirbek Baxodir o'g'li	
O'ZBEKISTONDA TIJORAT BANKLARI AUDITINING HUQUQIY-ME'YORIY ASOSLARI VA HOZIRGI HOLATI.....	373
Ibragimov Nodirbek Baxodir o'g'li	
KAM XARAJATLI TASHUVCHILAR MODELINING MOHIYATI	376
Suyunov Alisher	
O'ZBEKISTONDA EKOLOGIK MEHMONXONALAR FAOLIYATINING SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA HORIIYIY TAJRIBANI QO'LLANILISHI.....	379
Abidova Dilfuza Igamberdievna	
ЦИФРОВИЗАЦИЯ В ТУРИЗМЕ КАК ФАКТОР ТРАНСФОРМАЦИИ СПРОСА И ПРЕДЛОЖЕНИЯ.....	382
Абидова Дилфуза Игамбердиевна	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA TIJORAT BANKLARINING RAQOBATBARDOSHLIGINI BAHOLASH.....	385
M. M. Abdurahmanova	
ERKIN IQTISODIY ZONA ISHTIROKCHILARIGA BERILGAN SOLIQ IMTIYOZLARI	389
Davlayev G'olib Ashurovich	
KIMYO SANOATI KORXONALARIDA YASHIL TRANSFORMATSIYA VA RAQOBATBARDOSHLIKNI OSHIRISHNING ILMIY-AMALIY JIHATLARI	392
Xaydarova Kamola Axinjanovna	
ERKIN IQTISODIY ZONALARDA FAOLIYAT YURITUVCHI TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI ZAMONAVIY INFRATUZILMA BILAN TA'MINLASHNING HUQUQIY VA IQTISODIY MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	395
Davlayev G'olib Ashurovich	
O'ZBEKISTONDA QURILISH SOHASINI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI VA INSTITUTIONAL ISLOHOTLAR	398
Asadova Maftuna Sa'dullayevna	
YASHIL IQTISODIYOTNI MOLIVALASHTIRISH ORQALI IQTISODIYOT SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	401
Xolikov S.X.	
YASHIL IQTISODIYOTNI MOLIVALASHTIRISH ORQALI IQTISODIYOT SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	404
S.X. Xolikov	
DAROMADLAR VA XARAJATLARNI BOSHQARISH KONSEPSIYALARI VA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR.....	408
Aymuxammedova Amina Kakajanovna	
QISHLOQ XO'JALIGI AGROTEKNOLOGIYALARINI MOLIVALASHTIRISH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH	411
Jolibekov Vladimir Baxtiyarovich	



TOWARDS A GREEN ECONOMY IN UZBEKISTAN: REGIONAL DEVELOPMENT AND ENVIRONMENTAL CHALLENGES	413
Khakimdjanova Surayyo Khabibullayevna	
TOWARD RESPONSIBLE HYDROCARBON DEVELOPMENT: SUSTAINABILITY AND ENVIRONMENTAL ACCOUNTABILITY.....	417
Kudratkhodjaeva Ziyoda Kamol kizi	
MINTAQAVIY IQTISODIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHNING INSTITUTSIONAL MEXANIZMLARI	420
Islamov Anvar Ashirqulovich	
O'ZBEKISTON SANOAT TARMOG'INING HOZIRGI HOLATI VA IQTISODIY KO'RSATKICHLARI DINAMIKASI.....	423
Ne'matov Shoxruxbek Ma'murjon o'g'li	
TIJORAT BANKLARINING ONLAYN XIZMATLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING XALQARO TAJRIBASI	427
Jumaniyozova M. Y.	
HAVO TRANSPORTIDA YUK TASHISH BOZORIDA KICHIK TADBIRKORLIKNING TASHKILIY-HUQUQIY SHAKLLARI: GSA/ GSSA AGENTLIK HAMDA EKSPEDITORLIK MODELLARI TAHLILI	430
Anvarova Dilfuza Abdusattor qizi	



HAVO TRANSPORTIDA YUK TASHISH BOZORIDA KICHIK TADBIRKORLIKNING TASHKILIY-HUQUQIY SHAKLLARI: GSA/ GSSA AGENTLIK HAMDA EKSPEDITORLIK MODELLARI TAHLILI

Anvarova Dilfuza Abdusattor qizi
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
“Biznes boshqaruvi” kafedrasida tayanch doktoranti
E-mail: mrs.anvarova@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu tezis havo transportida yuk tashish bozorida kichik tadbirkorlik subyektlari faoliyat yuritishi mumkin bo'lgan uchta asosiy tashkiliy-huquqiy shaklni — General Sales Agent (GSA), General Sales and Service Agent (GSSA) hamda transport-ekspeditorlik kompaniyalarini institutsional-huquqiy jihatdan qiyosiy tahlil qiladi. IATA Cargo Agency Program hujjatlari, FIATA Freight Forwarding Services Model Rules (2019-yil tahriri), O'zbekiston Respublikasining 1996-yil 29-avgustda qabul qilingan Fuqarolik kodeksi (ikkinchi qism) 40-bobi [8] hamda O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 9-avgustdagi O'RQ-706-son “Transport to'g'risida”gi Qonuni [9] asosida uch modelning huquqiy maqomi, javobgarlik chegaralari, daromad tuzilishi va bozorga kirish to'siqlari ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston sharoitida transport-ekspeditorlik modeli kichik tadbirkorlik uchun nisbatan past kirish to'sig'iga ega, GSSA modeli esa o'rta muddatli istiqbolda eng yuqori o'sish salohiyatiga ega.

Kalit so'zlar: havo yuk tashish, kichik tadbirkorlik, General Sales Agent, GSSA, transport ekspeditsiyasi, IATA Cargo Agency, FIATA Model Rules, tashkiliy-huquqiy shakl.

Abstract. This paper provides a comparative institutional and legal analysis of three main organizational and legal forms through which small business entities may operate in the air cargo market: the General Sales Agent (GSA), the General Sales and Service Agent (GSSA), and freight forwarding companies. Based on the IATA Cargo Agency Program documentation, the FIATA Model Rules for Freight Forwarding Services (2019 revision), Chapter 40 of the Civil Code of the Republic of Uzbekistan (Part Two), adopted on August 29, 1996 [8], and Law of the Republic of Uzbekistan No. ZRU-706 “On Transport” dated August 9, 2021 [9], the study examines the legal status, liability boundaries, revenue structure, and market entry barriers of the three models. The findings indicate that, under the conditions of Uzbekistan, the freight forwarding model has a relatively low entry barrier for small businesses, whereas the GSSA model has the highest growth potential in the medium term.

Keywords: air cargo transportation, small business, General Sales Agent, GSSA, freight forwarding, IATA Cargo Agency, FIATA Model Rules, organizational and legal form.

Аннотация. В данной работе представлен сравнительный институционально-правовой анализ трёх основных организационно-правовых форм, в рамках которых субъекты малого предпринимательства могут осуществлять деятельность на рынке авиагрузовых перевозок: генерального агента по продажам (GSA), генерального агента по продажам и обслуживанию (GSSA) и транспортно-экспедиторских компаний. На основе документации IATA Cargo Agency Program, Модельных правил FIATA о транспортно-экспедиторских услугах в редакции 2019 года, главы 40 Гражданского кодекса Республики Узбекистан (часть вторая), принятого 29 августа 1996 года [8], а также Закона Республики Узбекистан от 9 августа 2021 года № ЗРУ-706 «О транспорте» [9] рассматриваются правовой статус, пределы ответственности, структура доходов и барьеры входа на рынок по трём моделям. Результаты исследования показывают, что в условиях Узбекистана транспортно-экспедиторская модель характеризуется относительно низким барьером входа для малого предпринимательства, тогда как модель GSSA обладает наиболее высоким потенциалом роста в среднесрочной перспективе.

Ключевые слова: авиагрузовые перевозки, малое предпринимательство, генеральный агент по продажам, GSSA, транспортная экспедиция, IATA Cargo Agency, Модельные правила FIATA, организационно-правовая форма.



KIRISH

O'zbekistonda havo yuk tashish bozori so'nggi yillarda barqaror rivojlanib borayotgan bo'lib, uning tarkibiy tuzilmasida davlat operatorining ulushi salmoqli bo'lib qolmoqda. Xususi sektor, ayniqsa kichik tadbirkorlik subyektlari, ushbu bozorga qanday tashkiliy-huquqiy shaklda kirishi mumkinligi masalasi milliy transport siyosati va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash strategiyasining kesishmasida turadi. Muallifning avvalgi tadqiqotlarida ushbu bozorning umumiy manzarasi, jahon tajribasi va biznes-modellar samaradorligi, shuningdek, raqamli transformatsiya masalalari yoritilgan. Biroq mazkur tadqiqotlarda kichik tadbirkorlik faoliyatini muayyan huquqiy shakllarda tashkil etish masalasi alohida tadqiqot yo'nalishi sifatida yetarli darajada yoritilmagan. Mazkur tezis shu bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan.

Muammoning mohiyati quyidagicha. Aviatsiya sanoati yuqori kapital sig'imiga ega tarmoq bo'lib, kichik biznesning to'g'ridan-to'g'ri aviatashuvchi sifatida bozorga kirishi katta moliyaviy, texnik va institutsional resurslarni talab qiladi. Shu bois xalqaro amaliyotda havo yuk tashish qiymat zanjirining aksariyat qismi — sotish, agentlik, ekspeditsiya, konsolidatsiya, bojxona rasmiylashtirish — vositachi tashkiliy shakllar orqali amalga oshiriladi. Ushbu vositachilar aynan kichik va o'rta biznesning bozorga kirish nuqtasi hisoblanadi. IATA ma'lumotlariga ko'ra, tashkilotning Cargo Agency Program tarmog'i 90 dan ortiq mamlakat va hududda 20 000 dan ortiq akkreditatsiyalangan yuk agentlari va vositachilarni birlashtiradi [1]. Uch model — GSA, GSSA va transport ekspeditori — kichik biznesning aynan shu ekotizimga qanday kirishini belgilaydi.

Tadqiqotning maqsadi — ushbu uch modelning institutsional-huquqiy tavsifini xalqaro (IATA, FIATA) va milliy (O'zbekiston FK 40-bob, "Transport to'g'risida"gi Qonun) manbalar asosida qiyosiy tahlil qilish va kichik tadbirkorlik uchun eng maqbul shaklni asoslashdir. Vazifalar: (1) har bir modelning huquqiy maqomi va vakolatlarini aniqlash; (2) javobgarlik chegaralari va daromad tuzilishini qiyoslash; (3) O'zbekiston qonunchiligidagi mavjud tartibga solish holatini baholash; (4) kichik tadbirkorlik uchun aniq tavsiyalar shakllantirish. Ilmiy yangilik uchta institutsional shaklni bir xil qiyosiy mezonlar asosida O'zbekiston kontekstiga tatbiqan tahlil qilishdan iborat — bu yo'nalishdagi tizimli tadqiqotlar mahalliy ilmiy adabiyotda nisbatan cheklangan.

Havo yuk tashish vositachilarining tashkiliy-huquqiy shakllari xalqaro ilmiy adabiyotda asosan ikki yo'nalishda o'rganilgan. Birinchi yo'nalish — havo yuk tashish operatsion iqtisodiyoti kontekstida ekspeditorning aviakompaniyani tanlashi va xavf boshqaruvi masalalari (Feng, Li va Shen, 2015; Feng, Jiang va Lai, 2020; Kupfer va boshqalar, 2017) [2], [3], [4]. Ikkinchi yo'nalish — huquqiy adabiyotda ekspeditorning huquqiy maqomi (agent yoki shartnomaviy tashuvchi) muammosi, xususan, FIATA Model Rules asosida tahlil qilingan [5]. GSA/GSSA modellari bo'yicha alohida akademik tadqiqotlar nisbatan cheklangan; ushbu shakllar ko'proq sanoat hujjatlarida (TIACA, IATA CASS materiallari) tavsiflangan [6], [7]. Mahalliy adabiyotda esa transport ekspeditsiyasining fuqarolik-huquqiy tabiati O'zbekiston Fuqarolik kodeksining 40-bobi (726–731-moddalar) kontekstida ko'rib chiqilgan [8], [9], biroq GSA/GSSA institutsional shakllari alohida tadqiqot predmeti sifatida qaralmagan.

GSA (General Sales Agent) modeli

GSA — bu IATA a'zosi bo'lgan yoki bo'lmagan aviatashuvchi tomonidan aniq geografik hududda yo'lovchi va/yoki yuk havo tashish xizmatlarini sotish bo'yicha umumiy vakolat berilgan shaxs bo'lib, u komissiya haqi oladi [10]. Iqtisodiy mohiyati — aviakompaniya uchun ma'lum bir mamlakat/hudud bo'yicha to'liq o'z ofisini ochish tijorat jihatdan asossiz bo'lgan holatlarda mahalliy sotish nuqtasi vazifasini bajarish. GSA aviakompaniya nomidan ish tutadi, o'z xarajatlari va tavakkalchiligi asosida faoliyat olib boradi, biroq tashuvchi maqomiga ega emas — u aviakompaniyaning sotish vakili hisoblanadi.

Huquqiy nuqtai nazardan GSA IATA Cargo Agency Program doirasida akkreditatsiyadan o'tishi mumkin; bu holda u IATA Cargo Agent maqomiga ega bo'ladi va Cargo Accounts Settlement Systems (CASS) tizimida moliyaviy hisob-kitob ishtirokchisi sifatida qayd etiladi [1]. Akkreditatsiya moliyaviy barqarorlik, kadrlar malakasi va operatsion talablar bo'yicha standartlarga muvofiqlikni talab qiladi. GSA'ning mas'uliyat chegarasi tor: u tuzilgan agentlik shartnomasi doirasida sotish maqsadlariga erishish va aviakompaniya ko'rsatmalariga rioya qilish uchun javob beradi, biroq yukning yo'qolishi yoki shikastlanishi uchun to'g'ridan-to'g'ri javobgarlikni ko'tarmaydi — bu javobgarlik tashuvchi (aviakompaniya) zimmasida qoladi.

GSSA (General Sales and Service Agent) modeli

GSSA — GSA modelining kengaytirilgan versiyasi bo'lib, sotish funksiyalariga qo'shimcha ravishda operatsion xizmatlarni ham qamrab oladi. The International Air Cargo Association (TIACA) hujjatlariga ko'ra, zamonaviy GSSA sotish, brend boshqaruvi, tarmoqni rivojlantirish, rampa nazorati (ramp supervision), sheriklik shartnomalari, buxgalteriya, logistik yechimlarni ishlab chiqish va yangi yo'nalishlarni ochish kabi xizmatlarni taklif etadi [6]. Ikkinchi "S" harfi aynan "Service" — xizmat ko'rsatish jihatini bildiradi va GSSA'ni oddiy GSA'dan ajratib turadi.

Amaliyotda GSSA aviakompaniya nomidan yuk uchun joy sotadi, mijozlar bilan shartnomalar tuzadi, aviayuk hujjatlarini (Air Waybill) rasmiylashtiradi va ko'p hollarda mahalliy perron va yer usti xizmatlari operatorlari



bilan koordinatsiya qiladi. IATA CASS tizimida GSSA'lar alohida ishtirokchi sinfi sifatida tan olingan [11]. GSSA modelining xalqaro tarqalganligi shundan dalolat beradiki, ko'plab aviatashuvchilar o'zlarining global tarmog'ini aynan GSSA agentlik shartnomalari orqali kengaytiradi; ba'zi yirik GSSA tashkilotlari 50 dan ortiq mamlakatda ofislarga ega [6]. Mas'uliyat jihatidan GSSA GSA'ga qaraganda kengroq operatsion javobgarlikni ko'taradi, biroq baribir shartnomaviy tashuvchi maqomiga ega emas — u aviakompaniya vakolati doirasida ish tutadi.

Transport-ekspeditorlik (freight forwarding) modeli

Ekspeditor — GSA/GSSA'dan tubdan farq qiluvchi mustaqil huquqiy shakl. FIATA (International Federation of Freight Forwarders Associations) Model Rules for Freight Forwarding Services (1996-yilda qabul qilingan, 2019-yilda qayta ko'rib chiqilgan) hujjatiga ko'ra, ekspeditor ikki xil huquqiy maqomda ish tutishi mumkin: (a) mijozning agenti sifatida — bu holda u tashish shartnomasini uchinchi shaxs (haqiqiy tashuvchi) nomidan tuzadi va yuk uchun to'g'ridan-to'g'ri javobgarlik ko'tarmaydi; (b) shartnomaviy tashuvchi (contracting carrier) sifatida — bu holda u o'z nomidan tashish majburiyatini oladi va yukning yo'qolishi/shikastlanishi uchun tashuvchi sifatida javobgarlikni ko'taradi [12], [13].

FIATA ekspeditorlik zanjirini standartlashtirish uchun bir qator xalqaro hujjatlarni ishlab chiqqan: negotiable FIATA Multimodal Transport Bill of Lading (FBL), non-negotiable FIATA Multimodal Transport Waybill (FWB) va boshqalar [14]. FBL — ekspeditor multimodal transport operatori (MTO) sifatida chiqqan konosament bo'lib, uning shartlari FIATA tomonidan yagona shaklda belgilangan. Milliy darajada ko'pchilik ekspeditorlar milliy assotsiatsiyalar tomonidan FIATA Model Rules asosida ishlab chiqilgan Standard Trading Conditions (STC) shartlariga muvofiq ish yuritadi.

O'zbekiston qonunchiligida transport-ekspeditorlik faoliyati alohida huquqiy institut sifatida tan olingan. Fuqarolik kodeksining 40-bobi (726–731-moddalar) “Transport ekspeditsiyasi” deb nomlanadi va ekspeditsiya shartnomasining tushunchasi, taraflar mas'uliyati, ekspeditorga taqdim etiladigan hujjatlar va axborot, uchinchi shaxsning ekspeditor majburiyatini bajarishi hamda shartnomadan bosh tortish tartibini belgilaydi [8], [15]. “Transport to'g'risida”gi Qonunda esa transport-ekspeditorlik xizmatlarini ko'rsatish shartlari va taraflarning javobgarligi normativ-huquqiy hujjatlar va shartnomalarda belgilanishi ko'rsatilgan [9].

1-jadval.

GSA, GSSA va transport-ekspeditorlik modellarining qiyosiy tavsifi¹

Mezon	GSA	GSSA	Transport-ekspeditor
Huquqiy maqom	Aviakompaniyaning sotish vakili	Aviakompaniyaning sotish va xizmat vakili	Mustaqil huquqiy subyekt; agent yoki shartnomaviy tashuvchi
Vakolat manbayi	Aviakompaniya bilan agentlik shartnomasi	Aviakompaniya bilan kengaytirilgan agentlik shartnomasi	Mijoz bilan ekspeditsiya shartnomasi (O'zR FK 726-modda)
Xalqaro standart	IATA Cargo Agency Program, CASS	IATA CASS, TIACA amaliyoti	FIATA Model Rules (2019), FBL/FWB hujjatlari
Kimning nomidan ish tutadi	Aviakompaniya nomidan	Aviakompaniya nomidan	O'z nomidan yoki mijoz nomidan
Yuk uchun javobgarlik	Yo'q (tashuvchida)	Yo'q (tashuvchida)	Agent — cheklangan; carrier — to'liq
Daromad tuzilishi	Komissiya	Komissiya + xizmat haqi	Marja (narx farqi) + xizmat haqi
Boshlang'ich kapital talabi	O'rta (akkreditatsiya + moliyaviy kafolatlar)	Nisbatan yuqori (ofis tarmog'i, kadrlar)	Nisbatan past (asosiy vosita — bilim va aloqalar)
Litsenziyalash	IATA akkreditatsiya + milliy ro'yxatga olish	IATA akkreditatsiya + milliy ro'yxatga olish	Milliy ro'yxatga olish; FIATA a'zoligi ixtiyoriy
Kichik biznes uchun kirish to'sig'i	O'rta-yuqori	Yuqori	Past
Bozor tavakkalchiligi	O'rta (bir aviakompaniyaga bog'liqlik)	O'rta-yuqori	Ko'proq diversifikatsiyalangan

Amaldagi O'zbekiston normativ-huquqiy bazasi transport-ekspeditorlik faoliyati uchun yetarli huquqiy asosga ega. O'zbekiston Respublikasining 1996-yil 29-avgustda qabul qilingan Fuqarolik kodeksi (ikkinchi qism) 40-bobi transport ekspeditsiyasi shartnomasining asosiy jihatlarini tartibga soladi [8]. O'zbekiston

¹ Manba: muallif tomonidan IATA, FIATA va TIACA materiallari, O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi (ikkinchi qism) 40-bobi hamda O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 9-avgustdagi O'RQ-706-son “Transport to'g'risida”gi Qonuni asosida tuzilgan.



Respublikasining 2021-yil 9-avgustdagi O'RQ-706-son "Transport to'g'risida"gi Qonuni esa aralash tashishlarni tashkil etish hamda aralash tashishlar operatorining huquq va majburiyatlarini belgilaydi [9]. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 9-sentabrdagi 348-son "O'zbekiston Respublikasida transport-ekspeditorlik faoliyatini tartibga solishni takomillashtirish to'g'risida"gi qarori transport-ekspeditorlik korxonalari faoliyati, ularning huquqlari, majburiyatlari va javobgarligini tartibga soladi. Mazkur qaror bilan tasdiqlangan nizomga ko'ra, transport-ekspeditorlik xizmatlari yuk tashishni tashkil etish, maqbul tashish sxemasini tanlash, yuklarni sug'urtalash, hujjatlarni rasmiylashtirish, bojxona tartibotlarini bajarish va boshqa tegishli xizmatlarni qamrab oladi [15].

Shu bilan birga, GSA va GSSA modellari O'zbekistonda hozircha cheklangan ko'lamda qo'llanmoqda. Buning bir necha sabablari mavjud. Birinchidan, milliy normativ-huquqiy bazada aynan "General Sales Agent" va "General Sales and Service Agent" tushunchalari alohida institut sifatida kodifikatsiyalanmagan — ular umumiy agentlik shartnomasi doirasida amalga oshiriladi, bu esa xalqaro standartlar bilan integratsiya jarayonida qo'shimcha huquqiy aniqlikni talab qiladi. Ikkinchidan, IATA akkreditatsiyasi va CASS tizimida ishtirok etish uchun belgilangan moliyaviy kafolatlar hamda operatsion talablar kichik biznesning bozorga kirishida qo'shimcha shartlarni yuzaga keltiradi. Uchinchidan, mahalliy bozorda GSSA xizmatlariga ehtiyoj bildirayotgan xalqaro aviatashuvchilar soni hozircha nisbatan kam, chunki ular ko'p hollarda o'z vakolatxonalari orqali ish yuritadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tahlil natijalariga ko'ra, O'zbekistonda kichik tadbirkorlik uchun havo yuk tashish bozoriga kirishda nisbatan qulay tashkiliy shakllardan biri transport-ekspeditorlik modelidir. Bu model milliy qonunchilikda batafsil tartibga solingan (FKning 40-bobi), FIATA xalqaro standartlariga muvofiq ish yuritish imkonini beradi va yirik boshlang'ich kapitalni talab qilmaydi. Kichik tadbirkorlik uchun tavsiya — ekspeditorlik faoliyatini bilim va aloqalar zaminida boshlash, keyinchalik FIATA milliy assotsiatsiyasi orqali xalqaro standartlarga integratsiyalash.

GSSA modeli o'rta muddatli istiqbolda yuqori o'sish salohiyatiga ega tashkiliy shakllardan biri sifatida baholanishi mumkin. O'zbekistonning Markaziy Osiyodagi tranzit mavqei kuchayishi bilan xalqaro aviatashuvchilarning mahalliy vakillikka bo'lgan ehtiyoji oshmoqda. Kichik biznes uchun GSSA maqomiga bosqichma-bosqich o'tish yo'li — dastlab ekspeditor sifatida ish boshlash, IATA Cargo Agency akkreditatsiyasidan o'tish va bir yoki bir nechta aviakompaniya bilan agentlik munosabatlarini o'rnatish.

Davlat tomonidan tartibga solish nuqtai nazaridan tegishli qonunchilik normalarini yanada takomillashtirish maqsadga muvofiq: (a) "General Sales Agent" va "GSSA" institutlarini alohida huquqiy kategoriya sifatida tan olish; (b) IATA akkreditatsiyasi uchun milliy ekspeditorlarga uslubiy va moliyaviy ko'mak berish; (c) FIATA Model Rules'ning milliy Standard Trading Conditions sifatida qabul qilinishini rag'batlantirish. Ushbu chora-tadbirlar O'zbekiston havo yuk tashish bozorida kichik tadbirkorlik ulushini kengaytirish va xalqaro logistika tizimiga integratsiyani chuqurlashtirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. International Air Transport Association (IATA). Cargo Agency Program. — URL: <https://www.iata.org/en/services/cargo-agency-program/>
2. Feng B., Li Y., Shen Z.-J. M. Air cargo operations: Literature review and comparison with practices // Transportation Research Part C: Emerging Technologies. — 2015. — Vol. 56. — P. 263–280. — DOI: 10.1016/j.trc.2015.03.028.
3. Feng B., Jiang Z., Lai F. Robust approach for air cargo freight forwarder selection under disruption // Annals of Operations Research. — 2020. — Vol. 291, No. 1–2. — P. 339–360. — DOI: 10.1007/s10479-019-03330-y.
4. Kupfer F., Meersman H., Onghena E., Van de Voorde E. The underlying drivers and future development of air cargo // Journal of Air Transport Management. — 2017. — Vol. 61. — P. 6–14. — DOI: 10.1016/j.jairtraman.2016.07.002.
5. International Federation of Freight Forwarders Associations (FIATA). FIATA Updates Model Rules on Freight Forwarding Services. — 3 October 2019. — URL: <https://fiata.org/n/model-rules-on-freight-forwarding-services-update/>
6. The International Air Cargo Association (TIACA). General Sales and Service Agents — A Vital Component of Global Distribution. — URL: <https://tiaca.org/general-sales-and-service-agents-a-vital-component-of-global-distribution/>
7. International Air Transport Association (IATA). Cargo Agent's and European Air Cargo Program Handbooks. — URL: <https://www.iata.org/en/services/cargo-agency-program/cargo-agent-handbooks/>



8. O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi (Ikkinchi qism): 1996-yil 29-avgust. 40-bob — “Transport ekspeditsiyasi”, 726–731-moddalar. — URL: <https://lex.uz/docs/-180552>
9. O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 9-avgustdagi O‘RQ-706-son “Transport to‘g‘risida”gi Qonuni. — URL: <https://lex.uz/docs/-5563039>
10. International Air Transport Association (IATA). IATA Settlement Systems Service Provisions — Cargo. — Geneva: International Air Transport Association, January 2021. — 108 p. — URL: <https://www.iata.org/contentassets/c34e0f10a40543b48ba0bec8adf5e98b/issp-cargo-manual.pdf>
11. International Air Transport Association (IATA). Cargo Accounts Settlement Systems — CASS. — URL: <https://www.iata.org/en/services/finance/cass/>
12. International Federation of Freight Forwarders Associations (FIATA). Model Rules for Freight Forwarding Services. — Geneva: FIATA, 2019 revision. — URL: <https://fiata.org/n/model-rules-on-freight-forwarding-services-update/>
13. International Federation of Freight Forwarders Associations (FIATA). Guidance Note on the Terms and Conditions of the FIATA Multimodal Transport Bill of Lading and Their Interaction with Standard Trading Terms and Conditions. — URL: <https://fiata.org/resources/> (murojaat sanasi: 08.07.2026).
14. International Federation of Freight Forwarders Associations (FIATA). FIATA Documents and Resources. — URL: <https://fiata.org/resources/>
15. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 9-sentabrdagi 348-son “O‘zbekiston Respublikasida transport-ekspeditorlik faoliyatini tartibga solishni takomillashtirish to‘g‘risida”gi qarori. Transport-ekspeditorlik korxonalari to‘g‘risidagi nizom va transport-ekspeditorlik xizmatlari ko‘rsatish tartibi. — URL: <https://lex.uz/docs/-362374>
16. Zhong L. FIATA Standards: FIATA Documents and Applications. — CAREC Training on Supply Chain Management, Logistics and FIATA Standards. — Tashkent, Uzbekistan, 19–23 August 2013. — URL: <https://www.carecprogram.org/uploads/Module-06-FIATA-Standards.pdf>

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA VA SUN'IY INTELLEKT

Ilmiy elektron jurnal

(MAXSUS SON)

Bosh muharriri: Mo'minov Baxodir Boltaevich

Bosh muharrir o'rinbosari: Nasimov Rashid

Muharrir: Ulug'ova Baxtiniso Norpulatovna

Musahhih: Ulug'ova Baxtiniso Norpulatovna

Dizayner: Egamberdiev Elyor

“Raqamli transformatsiya va sun'iy intellekt” jurnali 23.10.2020-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№1124 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

